

## QARDOSH BO'LMAGAN XALQLARNING RANGGA BO'LGAN RAMZIYLIGI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Azizova Zarina Alixanovna,  
SamdCHTI mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qardosh bo'lmagan xalqlar vakillari hisoblangan nemis va o'zbek xalqlarining ranglarga bo'lgan ramziy munosabati lingvokulturologik va qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda rang nomlarining (koloronimlarning) semantik, frazeologik va paremiologik xususiyatlari, ularning xalq tafakkuri, mentaliteti, madaniy qadriyatlarini hamda tarixiy-etnik tajribasi bilan bog'liqligi ochib beriladi. Ayniqsa oq, qora, qizil, ko'k, yashil va sariq ranglarning nemis va o'zbek tillaridagi ramziy ma'nolari frazeologik hamda paremiologik birliklar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayrim ranglar universallik kasb etsa-da, ularning madaniy interpretatsiyasi milliy mentalitet va tarixiy taraqqiyotga ko'ra farqlanadi.

**Kalit so'zlar:** rang semantikasi, koloronim, rang ramziyligi, lingvokulturologiya, frazeologiya, paremiologiya, nemis tili, o'zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, madaniy kod.

**Аннотация.** В данной статье анализируется символическое восприятие цветов у неродственных народов немецкого и узбекского с лингвокультурологической и сравнительно-типологической точек зрения. В исследовании рассматриваются семантические, фразеологические и паремиологические особенности цветообозначений (кolorонимов), а также их связь с национальным мышлением, культурными ценностями и историко-этническим опытом народов. Особое внимание уделяется сравнительному анализу символических значений белого, черного, красного, синего, зеленого и желтого цветов в немецком и узбекском языках на материале фразеологических и паремиологических единиц. Результаты исследования показывают, что, несмотря на универсальность некоторых цветовых символов, их культурная интерпретация варьируется в зависимости от национального менталитета.

**Ключевые слова:** семантика цвета, kolorоним, цветовая символика, лингвокультурология, фразеология, паремиология, немецкий язык, узбекский язык.

**Abstract.** This article analyzes the symbolic perception of colors among unrelated peoples, namely Germans and Uzbeks, from linguocultural and comparative-typological perspectives. The study examines the semantic, phraseological, and paremiological characteristics of color terms (coloronyms), as well as their connection with national mentality, cultural values, and historical-ethnic experience. Particular attention is paid to the comparative analysis of the symbolic meanings of white, black, red, blue, green, and yellow in German and Uzbek based on phraseological and paremiological units. The results indicate that although some color symbols demonstrate universality, their cultural interpretation differs depending on national mentality and historical development.

**Keywords:** color semantics, coloronym, color symbolism, linguoculturology, phraseology, paremiology, German language, Uzbek language, comparative linguistics.

**Kirish.** Til inson tafakkuri, madaniyati va tarixiy tajribasining eng muhim ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Har bir xalqning dunyoni idrok etishi, borliqqa munosabati hamda mental tasavvurlari til birliklarida, ayniqsa semantik jihatdan boy va madaniy yuklamaga ega bo'lgan frazeologik hamda paremiologik birliklarda o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan rang nomlari, ya'ni koloronimlar tilshunoslikda alohida qiziqish uyg'otuvchi semantik qatlam hisoblanadi.

Jamyatimizda rang inson tafakkurida nafaqat vizual idrok elementi, balki madaniy, emotsional, diniy va ramziy ma'nolarni ifodalovchi konseptual birlik sifatida namoyon bo'ladi, balki muayyan rang bir xalq uchun poklik, quvonch yoki ezgulik ramzi bo'lsa,

boshqa xalq madaniyatida u mutlaqo qarama-qarshi semantik yuklamaga ega bo'lishi mumkin. Shu bois rang semantikasi lingvokulturologik tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Frazeologik birliklar va rang semantikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha frazeologiya, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik kesishmasida rivojlangan. O'zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev va B. Yo'ldoshev frazeologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tavsifiy va lingvokulturologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va nemis tillaridagi rang komponentli frazeologik birliklar hamda paremiyalar tanlab olindi.

Tahlil jarayonida semantik, struktur va pragmatik metodlar qo'llanildi. Frazeologik birliklarning ma'nosi konnotativ va denotativ qatlamlar asosida izohlandi, ranglarning madaniy ramziyligi esa lingvokulturologik yondashuv orqali tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy metod yordamida ikki til materiallari o'zaro solishtirilib, umumiy va milliy xususiyatlar aniqlandi. Natijalar tavsifiy va tahliliy usullar asosida umumlashtirildi.

**Tahlillar va natijalar.** Zamonaviy tilshunoslikda rang nomlarini o'rganish semasiologiya, frazeologiya, paremiologiya, etnolingvistika va lingvokulturologiya kesishgan nuqtada amalga oshirilmoqda. Ayniqsa qardosh bo'lmagan xalqlar tillarida ranglarga nisbatan shakllangan ramziy ma'nolarni qiyosiy o'rganish milliy madaniyatlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Nemis va o'zbek xalqlari genetik, tarixiy hamda madaniy jihatdan turli sivilizatsion qatlamlarga mansub bo'lishiga qaramay, ayrim ranglarga nisbatan o'xshash semantik stereotiplar shakllanganligi kuzatiladi. Shu bilan birga, har bir xalqning diniy qarashlari, tarixiy tajribasi, urf-odatlar va etnomadaniy tafakkuri ranglarning ma'noviy interpretatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur maqolamizning dolzarbligi nemis va o'zbek tillarida rang nomlarining ramziy funksiyalarini frazeologik va paremiologik materiallar asosida qiyosiy tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Maqolada biz rang semantikasi va koloronim tushunchasini nazariy jihatdan yoritish, nemis va o'zbek tillaridagi asosiy rang nomlarining madaniy-semantik xususiyatlarini aniqlash, frazeologik va paremiologik birliklar asosida qiyosiy tahlil o'tkazish hamda universal va milliy rang ramziyligini tahlilini ko'rib chiqqanmiz.

Rang semantikasi va koloronim tushunchasi bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda rang nomlari (koloronimlar) inson tafakkuri va madaniy idrokining muhim semantik komponentlaridan biri sifatida qaraladi. Rang nafaqat fizik hodisa yoki vizual idrok mahsuli, balki xalqning dunyoqarashi, psixologik holati, diniy qarashlari va etnomadaniy tafakkurini ifodalovchi konseptual birlik hisoblanadi. Shu bois rang semantikasi tilshunoslikning semasiologiya, etnolingvistika, lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik kabi yo'nalishlarida keng tadqiq etiladi.

Tilshunoslikda koloronim termini rangni ifodalovchi leksik birliklarni anglatadi. Koloronimlar faqat predmetning tashqi rang xususiyatini nomlash bilangina cheklanmaydi, balki qo‘shimcha konnotativ, emotsional va madaniy ma‘nolarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan, **oq** rangi o‘zbek madaniyatida poklik, ezgulik va xayrli niyat ramzi bo‘lsa, nemis madaniyatida ham **weiß** poklik va begunohlik bilan bog‘lanadi. Biroq ayrim hollarda bir xil rang turli madaniyatlarda turlicha semantik talqin qilinadi.

Rang nomlari semantik jihatdan ikki qatlamda namoyon bo‘ladi:

**Denotativ ma‘no** — rangning bevosita fizik xususiyatini ifodalaydi;

**Konnotativ ma‘no** — madaniy, emotsional, ramziy va assotsiativ mazmuni anglatadi.

Ilmiy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aynan konnotativ qatlam rang ramziyligini shakllantiradi. Rang ramziyligi insoniyat madaniyatining qadimiy qatlamlaridan biridir. Har bir xalq tarixiy rivojlanish jarayonida ranglarga ma‘lum semantik yuklama yuklagan. Natijada ranglar til birliklarida madaniy kod sifatida faol ishlay boshlagan.

Madaniy kod bu xalqning jamoaviy xotirasida shakllangan ma‘no tizimi bo‘lib, u til orqali avlodan-avlodga yetqaziladi. Ranglar ana shu kodning eng faol elementlaridan biridir.

Masalan:

**oq** → poklik, tinchlik, ezgulik;

**qora** → motam, qayg‘u, salbiylik;

**qizil** → hayot, ehtiros, xavf;

**yashil** → tabiat, yangilanish, umid;

**ko‘k** → osmon, erkinlik, ulug‘lik.

Biroq ushbu ma‘nolar universallikka ega bo‘lsa-da, har bir madaniyatda ularning interpretatsiyasi o‘ziga xos bo‘ladi.

O‘zbek madaniyatida oq yo‘l, oq niyat, oq fotiha ijobiy semantik birliklar hisoblanadi. Nemis tilida esa weiße Fahne zeigen (“oq bayroq ko‘rsatmoq”) taslim bo‘lish ma‘nosida qo‘llanadi.

Bu rang ramziyligining kontekstual va madaniy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganuvchi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishidir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til faqat kommunikativ vosita emas, balki xalq madaniy xotirasi va mentalitetining ko‘zgidir.

Rang komponentli frazeologik birliklar aynan lingvokulturologik tahlil uchun muhim material hisoblanadi, chunki ularda xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, diniy qarashlari va emotsional stereotiplari aks etadi.

Masalan, o‘zbek tilida:

“qora kun” — og‘ir hayot davri;

nemis tilida:

schwarzer Tag — muvaffaqiyatsiz kun.

Bu holatda qora/schwarz rangining salbiy konnotatsiyasi universallik kasb etgan. Biroq ayrim ranglarda milliy tafovut yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan, oʻzbeklarda koʻk osmon va muqaddaslik bilan bogʻliq boʻlsa, nemis tilida blau sein (“mast boʻlmoq”) mutlaqo boshqa pragmatik maʼnoni ifodalaydi.

Frazeologik va paremiologik birliklarda ranglar nafaqat tasviriy vosita, balki semantik markaz vazifasini bajaradi.

Frazeologik birliklarda rang bildiruvchi birliklar quyidagicha talqin qilinadi;

baholovchi maʼno beradi;

emotsional taʼsir kuchaytiradi;

milliy madaniy stereotipni aks ettiradi.

Paremiologik birliklarda esa rang:

xalq tajribasini umumlashtiradi;

axloqiy xulosa ifodalaydi;

madaniy ramz sifatida ishlaydi.

Masalan:

Oʻzbek tilida:

**“Qora mehnat bilan topilgan non shirin.”**

Nemistilida:

**Alles im grünen Bereich.**

(“Hammasi joyida.”)

Shu bois rang komponentli birliklarni qiyosiy oʻrganish xalqlarning semantik tafakkuridagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

**Qizil / Rot** rang.

Qizil rang koʻplab xalqlarda hayotiy energiya, ehtiros, faollik va xavf ramzi sifatida talqin qilinadi. Nemis va oʻzbek tillarida ham ushbu rangning semantik yuklamasi koʻp qatlamli xarakterga ega.

Nemis tilida rot sehen (“qizilni koʻrmoq”) frazeologizmi kuchli gʻazab holatini ifodalaydi. Bu yerda qizil rang insonning emotsional zoʻriqish holati bilan bogʻlangan. Yana rote Zahlen schreiben (“qizil raqamlarda yozmoq”) iqtisodiy zarar yoki moliyaviy yoʻqotish maʼnosida qoʻllanadi.

Oʻzbek tilida qizil rang koʻproq quvonch, bayram va estetik timsol sifatida namoyon boʻladi. Masalan, qizil yuz boʻlmoq uyat yoki hissiy hayajon holatini bildiradi. Shuningdek, xalq tafakkurida qizil rang baʼzan ogohlantiruvchi semantikani ham ifodalaydi.

Demak, qizil rang har ikki madaniyatda emotsional kuch bilan bogʻliq boʻlsa-da, nemis tilida salbiy-emotsional, oʻzbek tilida esa koʻproq hissiy-estetik maʼnoda namoyon boʻladi.

**Yashil / Grün** rang.

Yashil rang universal ravishda tabiat, hayot, yangilanish va umid timsoli sifatida qaraladi.

Nemis tilida grünes Licht geben (“yashil chiroq yoqmoq”) ruxsat bermoq ma’nosini bildiradi. Ushbu ibora zamonaviy kommunikativ madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib, yashil rangning ijobiy semantikasini ifodalaydi.

Shuningdek, alles im grünen Bereich (“hammasi yaxshi”) frazeologizmi ham ijobiy ma’noga ega.

O‘zbek tilida yashil rang diniy va madaniy jihatdan alohida o‘rin tutadi. U ko‘pincha hayot, yangilanish, tabiat va baraka ramzi sifatida qabul qilinadi. Masalan, yashil olam, yashil makon kabi birliklar ijobiy semantik yuklamaga ega.

Bu rang har ikki xalqda ijobiy universallik kasb etgan.

**Sariq / Gelb** rang.

Sariq rangning ramziyligi nemis va o‘zbek tillarida sezilarli farqlanadi.

Nemis tilida gelb vor Neid werden (“hasaddan sarg‘aymoq”) iborasi rashk va hasadni bildiradi. Bu yerda sariq rang salbiy emotsional holat bilan bog‘langan.

O‘zbek tilida esa sarg‘ayib kutmoq uzoq kutish, sog‘inch va ruhiy charchoqni ifodalaydi. Rangning bu ma’nosi inson fiziologik holati bilan bog‘liq.

Demak, sariq rang har ikki madaniyatda salbiy semantikaga ega bo‘lsa-da, semantik markaz turlicha.

**Jigarrang / Braun** rang.

Jigarrang rang frazeologik birliklarda boshqa ranglarga nisbatan kamroq faol, ammo madaniy kod sifatida ma’lum o‘rin egallaydi.

Nemis tilida braune Ideologie iborasi tarixiy-siyosiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, fashistik mafkura bilan bog‘liq.

O‘zbek tilida jigarrang ko‘proq tabiiylik, yer va oddiylik bilan assotsiatsiyalanadi, biroq frazeologik tizimda unchalik faol emas.

Bu farq tarixiy tajribaning tilga ta’sirini ko‘rsatadi.

**Kulrang / Grau** rang.

Kulrang rang ko‘pincha noaniqlik, zerikarlilik yoki hissiy betaraflik bilan bog‘lanadi.

Nemis tilida graue Maus (“kulrang sichqon”) iborasi e’tiborga tushmaydigan, tortinchoq shaxsni bildiradi.

O‘zbek tilida kulrangning frazeologik faolligi pastroq, biroq noaniqlik va xiralik ma’nolarida ishlatiladi.

Bu yerda nemis tilida personifikatsiya kuchliroq ekanligi kuzatiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘sak nemis va o‘zbek tillaridagi rang komponentli frazeologik hamda paremiologik birliklarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, ranglar har ikki xalq tilida muhim lingvokulturologik kod sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ranglar nafaqat

predmet belgisini ifodalovchi leksik birlik, balki xalqning tarixiy tajribasi, emotsional holati, madaniy qadriyatlari va mental tasavvurlarini ifodalovchi semantik vositadir.

O'rganishlar davomida ayrim ranglarning universal semantik xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, yashil rang har ikki madaniyatda ijobiylik, hayot va yangilanish bilan bog'liq. Shu bilan birga, sariq, jigarrang va kulrang ranglarda milliy tafovutlar yaqqol ko'zga tashlandi.

Nemis tilida rang komponentli frazeologizmlar ko'proq urban, tarixiy va psixologik kontekstlarda shakllangan bo'lsa, o'zbek tilida ular xalqona tafakkur, emotsional tajriba va etnomadaniy an'analar bilan chambarchas bog'liq.

Shunday qilib, rang semantikasi qardosh bo'lmagan xalqlarning dunyoqarashidagi umumiylik va farqlarni aniqlashda samarali lingvokulturologik indikator sifatida xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц русского языка. – Москва: Наука, 1977.
5. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996.
6. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1996.
7. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1997.
8. Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2010.